

XI-XIV ASRLARGA OID TARIXIY MANBALARDA TURK, SURYONIY YUNON VA RUM TILLARIGA MANSUB SO‘ZLAR ETIMOLOGIYASI

Toshboyev Bahrom Saidkulovich,

Samarqand shahar 77-maktab, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: bahromsaidkulovich@gmail.com

Tel: (90) 502 40 52

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tillarning rivojlanishi, o‘zaro aloqasi, qadimgi tillarga mansub so‘zlar etimologiyasiga oid qarashlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *turk, yunon, rum, suryoniy, Yabg‘u, Arok, Rum, Artabun, nayson, kis, Masih, Shis, yoqut, Iskandar, Inqliyun, Injil*

Turkiy tillarga mansub leksik birliklar etimologiyasi

X-XIII asrlar fors-tojik tarixiy asar mualliflarining qaydlari orasida o‘quvchi leksik birliklarning turkiy ildizlarga ega ekanligini qayd etib o‘tgan ishoralarga ham duch keladi.

Bunday lug‘atlarga nisbatan bir fikrni alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Ma’lumki, tadqiqotchilar ilmiy adabiyotlarda “turkcha olinma so‘zlar” birikmasi ostida o‘zbek, turk, mo‘g‘ul, turk-o‘zbek, turk-mo‘g‘ul kabi atamalarni nazarda tutishadi. Ayrim tilshunoslar so‘nggi yillarda bunday atamalar orasida turk-mo‘g‘ul atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq degan fikrni maqbul bilishdi. Masalan, professor H.Majidov bu borada shunday yozadi: “Bizningcha, bu turkum so‘zlarni ifodalashda faqat turk-mo‘g‘ul atamasini qabul qilish maqsadga muvofiqdir, chunki bu shu tillarning tarixiy mushtarakligiga ishora qilib, undan iqtibos qilingan so‘zlar to‘plamini to‘liq o‘z ichiga olishi mumkin”[12.114]. Albatta, ushbu guruhlash doirasida ularni kelib chiqishiga qarab kichikroq guruhlarga ham ajratish mumkin. Biroq bu maqsad faqat nazarda tutilayotgan so‘zlar etimologiyasi to‘liq o‘rganilganda gina amalga oshadi.

Turk-mo‘g‘ul va fors-tojik tillari o‘rtasidagi so‘z almashuvi juda uzoq tarixga ega bo‘lib, bunday leksik birliklarga Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si kabi somoniylar davri asarlarida ham duch kelinadi. Olimlar tomonidan tojik tilining lug‘at tarkibidagi turk-mo‘g‘ulcha so‘zlar soni 2 foizdan 15-16 foizgacha, hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi fors-tojikcha so‘zlar esa 8 foizdan 30-35 foizgacha ekanligi taxmin qilinadi. Yaqinda tadqiqotchilar F.Isomiddinov, H.Do‘smatov va J.Jamol tomonidan “O‘zbek tilining fors-tojikcha o‘zlashmalar lug‘ati” (Farg‘ona 2022) nomli lug‘at tuzilib, unda “Ozbek tilining izohli lug‘ati” tarkibidagi tojikcha so‘zlar jamlandi. Bu tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, lug‘atdagi 80000 yaqin so‘zlardan 7159 tasi yoki umumiy qamrovning taxminan 8-10 foizini tojikcha olinma so‘zlar tashkil etadi.

Tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida, xususan, bu ikki xalqning ijodkor va olimlari o'rtasida o'zaro so'z almashuvlari X-XIII asrlarda bir qadar o'zining rivojlanish darajasiga yetgan edi. Zero zamon zayli bilan shunday holatlar ham bo'lganki, fors xalqi yashaydigan yerlarda turk hukmdorlari va turkiy qavmlar hududlarida forsnajod podshohlar hukmronlik qilgan. Ana shunday tarixiy voqealar ikki millat vakillarining qo'ni-qo'shnichilikda, qismatdosh va dindosh bo'lib yashashiga sabab bo'ldi. Natijada, ushbu xalqlarning urf-odatlar va qadriyatlar ham birlashib, bir xil va umumiy shaklga ega bo'ldi.

X-XIII asrlar fors-tojik tarixiy manbalaridagi etimologik qarashlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hatto, ilk o'rta asrlarda ham ayrim so'zlarning turkiy o'zagi fan va adabiyot ahlining e'tiborini tortgan. Bunday holatni Irtish (toponimlar bobida tahlil qilingan) va yabg'u lug'aviy elementlari misolida ko'rsatish mumkin.

Yabg'u so'zi "Tarixi Tabariy" va "Zayn-ul-axbor" asarlarida turkiylar davlatidagi harbiy unvonni bildiruvchi atama sifatida izohlangan [8.290]. Bu so'z tarixiy lug'at maqomiga ega bo'lib, arab manbalarida jabg'u, "Devoni lug'ati-t-turk"da esa yafg'u shaklida qo'llangan.

So'zning turkiy tiliga nisbatlanishi haqida shuni aytish kerakki, kelib chiqishi eroniy tillarga mansub ba'zi lug'aviy elementlar vaqt o'tishi bilan turkiy shaklni qabul qilgani va shu shaklda keng tarqalishi kishini chalkashtirib yuboradi. Akademik B.G'afurov o'zining "Tojikon" asarida mazkur so'zning kelib chiqishi eroniy ekanligini aniq dalillar bilan isbotlagan: "Bu viloyat hokimlarining unvoni bo'lib, xitoyliklar uni "Xi-xeu" so'zi bilan ifodalashgan... Deyarli shubha yo'qki, bu keyinchalik kushon tangalarida yavuga shaklida ko'zga tashlanadigan ayni o'sha unvondir va so'ngra turklarga yabg'u shaklida o'tgan. G.Beylining fikricha, bu unvonning asli forsha va ma'nosi "boshliq" bo'lishi kerak"[5.178].

Turkiy tillarning eron tillariga, xususan, tojik tiliga ta'siri bo'lmagan zamonlar, ya'ni Kushoniylar davri tangalarida bu leksik birlikning zikr etilishi yabg'u so'zining fors-tojik tilidan kelib chiqqanligini isbotlaydi.

Rum tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Dissertatsiyada biz rum so'zlari atamasi ostida lotincha lug'at elementlarini nazarda tutamiz. Fors-tojik tili bilan rum tili o'rtasidagi munosabatlar juda uzoq tarixga ega. Tarixiy manbalar materiallaridan ko'rinib turibdiki, bunday so'zlarning tilimizga yo'l topishi miloddan avvalgi mingyillikka borib taqaladi. Chunonchi, biz tahlil qilayotgan tarixnomalarda Arok, Rum, Artabun (izohlari toponim va antroponimlar boblarida) va nayson so'zlari rum tiliga xos leksik birliklar sifatida qayd etilgan.

Nayson oyi haqida ham turli fikrlar mavjud. Masalan, "Tojik tili lug'ati"da suryoniy taqvimining yettinchi oyi deb talqin qilingan [15.828] bo'lsa, "G'iyos-ul-lug'ot"da esa rumlarning yettinchi oyning nomi sifatida izohlangan. Bundan tashqari, lug'atshunos Muhammad G'iyosuddin "nayson yomg'iri" birikmasining paydo

bo'lishini mazkur so'z bilan bog'laydi va bu mavsum bizning kalendarimiz bo'yicha taxminan aprel oyiga to'g'ri keladi

Dehxudoning "Lug'atnoma"sida nayson so'zi ham suryoniy va ham rum tilida borligi qayd etilgan. Biz bu so'zning rum tiliga mansubligi va keyinchalik suryoniy tiliga kirib qolgani haqidagi dalilni to'g'ri deb bilamiz.

Suryoniy tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Suryoniy tili oromiy tillar guruhining o'lik tili hisoblanadi. U eramizning I asridan boshlab Yaqin Sharqning adabiy tili sifatida qo'llanila boshlandi. Milodiy VIII asr oxirida arab tili keng tarqalib, suryoniy tilining tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Qo'llanish muddatida bu tildan boshqa tillarga, jumladan, fors-tojik tillariga ham bir qancha lug'at elementlari olinma so'z sifatida qabul qilinib, tarixiy asarlar mualliflari ularning ayrimlari xususida o'z mulohazalarini bildirishgan.

X-XIII asrlar islom dinining taraqqiy etgan davri bo'lganligi sababli, tabiiyki, hayotning har bir jabhasida diniy g'oyalarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Xususan, muarrixlar tarixiy voqealarni jamlashda, ayniqsa, afsonaviy davrlar tarixini bayon etishda diniy e'tiqod va rivoyatlarga qattiq amal qilganlar. Shunday qarashlardan biri suryoniy tilini birinchi va oxirgi til (qabr ahlinig tili) deb hisoblash edi. Bu nuqtayi nazar keyingi tadqiqotchilar tomonidan qisman qo'llab-quvvatlandi, ya'ni shu darajadagi, suryoniy tili dunyodagi eng qadimgi tillardan biri bo'lgan.

Tadqiq qilingan tarixiy asarlarda kis, Masih, Shis so'zlari qadimgi suryoniy tiliga mansub deb hisoblanadi. Shulardan kis so'zining lingvistik mansubligi "Zayn-ul-axbor"da keltirilgan bo'lib, muarrixning ta'kidlashicha ushbu suryoniy tiliga mansub so'z "o'ldirish, so'yish" ma'nosini bildiradi. Muallif so'zning qo'llanishi sababini Fir'avn qavmining suvda g'arq bo'lishi va o'limi bilan bog'liq deb hisoblaydi [8.265].

Yunon tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Ma'lumki, tojik tilining lug'at tarkibiga yunoncha so'zlarning kirib kelishi juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ulardan ba'zilarining o'rta fors yoki pahlaviy tillaridayoq qo'llanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, dunyoning ba'zi tillariga bevosita va boshqa bir guruh tillarga o'rta lotin tili orqali kirgan yunoncha kelib chiqishli yoqut so'zi o'rta fors yoki pahlaviy matnlarida yokand shaklida ishlatilgan [13.570]. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, xuddi shu leksik element tojiklarning ajdodlari tiliga arab tili orqali yoqut shaklida kirib kelgan. Aytish kerakki, tilimiz tarkibidagi yunoncha so'zlar X-XIII asrlar tarixnomalari mualliflarining nazaridan chetda qolmagan. Ular tahlil qilgan bu turdagi leksik birliklarga Iskandar (izohi antroponimlar bobida), Inqliyun va Qustantiniya (izohi toponimlar bobida) so'zlari misol bo'la oladi.

Inqliyun xristian dinining muqaddas kitobi Injilning boshqa nomidir. Abdulhay Gardeziyning qaydlariga ko'ra, Injil Inqliyunning muarrab (arablashgan) shaklidir: "U "Inqliyun"ning muarrabidir va bu haqda to'liq o'sha Masihning xabarida bor" [8.269].

Muarrixning tahliliga ko'ra, nasroniylikning muqaddas kitobi Iso alayhissalom zamonlaridan keyin to'rtta nisbatan sahih nusxada Matto (ibroniycha), Markus (rum),

Yuhanno (yunoncha) va Luqo (yunoncha) tomonidan kitobat qilinib, ushbu to'rt nusxaning umumiy nomi Inglyun deb e'tirof etilgan.

Injil yunoncha euangelion so'zidan kelib chiqqan va "xushxabar" degan ma'noni anglatadi. Injil so'zining ingliyundan kelib chiqqani va ingliyun nasroniylik muqaddas kitobining barcha to'rt nusxalarining umumiy nomi ekanligi haqidagi "Zayn-ul-axbor"ning ma'lumotlari lingvistik va diniy tahlillar bilan isbotlangan.

Mazkur tahlillardan yunoncha so'zning tilimizga kirib kelishi uzoq tarixga ega ekani, bunda goho ushbu so'zlar to'g'ridan to'g'ri, ba'zida esa arab tili orqali yo'l topganini ko'rish mumkin. Bu borada tilshunos olim H.Majidov shunday yozadi: "Bir guruh yunoncha o'zaklar (so'zlar) tojik tiliga faqat rus tili orqali emas, balki uzoq o'tmishda arab tili orqali ham kirib kelgan. Binobarin, bunday atamalarning ayrimlari hozirgi tojik adabiy tilida ba'zan bir-biridan butunlay farq qiladigan ikki xilda uchraydi. Yunoncha qiroat (keration "temir tanga" so'zidan "javohirlar og'irligi o'lchovi" ma'nosida), musiqa (mousike – "musiqiy san'at"), faylasuf (philosopos – "bilimdon donishmand"), molixuliyo (melas – "qora" va chole – "zarda" o'zaklaridan bo'lib, "vahima, savdoiylik va xayolkashlikka sabab bo'ladigan ruhiy kasallik" ma'nosida) kabi so'zlar allaqachon o'rta asrlarda arab tili orqali qabul qilingan edi. Ayni shu o'zaklar karat, muziqa, filosof, melanxoliya shakllarida rus tili orqali qayta o'zlashtirildi" [12.127].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, X-XIII asrlar fors-tojik tarixchilarining yuqorida tilga olingan leksik birliklarining yunon tiliga mansub ekanligi haqidagi etimologik tahlillari ilmiy haqiqatga mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. Asadii To'si. Lug'ati furs. Muqaddima, tahiya, hoshiya va fehristi Nurullo G'iyosov. – Xujand: Nuri ma'rifat, 2015. – 492 s.
2. Bal'ami A. Ta'rixi Tabari. 2 jildda – Tehron.: Zamon, 2001 y.
3. Dehxudo A. Lug'atnoma. J.7. A. Dehxudo. -Tehron: Muassisai intishorot va chopi Donishgohi Tehron, 1373 hij.
4. Fasmer M. Etimologicheskii slovar russkogo yazika [Tekst] / Fasmer M. T.1. – 561 s.; T.2. – 671s.; T.3. – 830 s.; T.4. – 860 s – M.: Progress,1986-1987.
5. G'afurov B. Tojikon. 1-2-kitob. – Dushanbe, 2008 y.
6. G'afurov O. Sharhi ismu laqabho. – Dushanbe.: Irfon, 1961 – 160 s.
7. G'iyosuddin M. G'iyos-ul-lug'ot. 1-2-jildlar. –Dushanbe.: Adib, 1987, 1988 y.
8. Gardezi A. Zayn u-l-axbor. – Dushanbe.: Buxoro, 2014 y.
9. Hasando'st M. Farhangi reshashinoxtii zaboni forsi. J.1, 585 s.; J.2, 1410 s.; J.3, 2080 s.; J.4, 2955 s. / M. Hasando'st. – Tehron, 1384.

10. Hasanzoda A.A. Asolati zabon va mahorati bayon. Maqola: Unsurhoi grammatikii hamguni muxtalifvazifa // Asolati zabon va mahorati bayon. – S. 506-512. – Xujand: Noshir, 2018. – 515 s.
11. Ibn-al-Balxi. Forsnoma. Ba chop tayyorkunandagon H.Raupov va M.Jalilova. – Dushanbe.: Donish, 1989. – 158 s.
12. Majidov H. Zaboni adabii muosiri tojik. Lug‘atshinosi / H. Majidov. – Dushanbe: Devashtich, 2007. – J.1. – S. 127.
13. Rastorgueva S.V., Yedelman D.I. Etimologicheskii slovar iranskix yazikov. 1-6-tomlar. – Moskva.: Vostochnaya literatura, 2000-2015 y.
14. Tabariy, Abuja’far Muhammad ibni Jarir. Ta’rixu-r-rusuli va-l-muluk (tarjuma az arabiy, mutarjim Abulqosimi Poyanda). Bo tahriri umumii Nurmuhammad Amirshohiy. Kitobi 1 (J.-hoi 1, 2 va avvali j. 3). – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmii Ensiklopediyai Millii Tojik, 2014. – 756 s. Kitobi 2 (oxiri j. 3 va j. 4). – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmii Ensiklopediyai Millii Tojik, 2014. – 762 s.
15. Zehni T., Kapranov A. va digaron. Farhangi zaboni tojiki. 1-2-jild. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969 y.